

"JASUR" JAMOASI TAQDIRLANDI



"JASUR" JAMOASI TAQDIRLANDI

Xabaringiz bor, tumanimizning 1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining o'quvchilari Farg'ona shahrida o'tkazilgan "Vatanparvar" harbiy-sport musobaqasida qatnashib, faxrli 2-o'rinni egallashdi.

Mazkur musobaqa O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi, Xalq ta'limi vazirligi hamda "Vatanparvar" tashkiloti Markaziy kengashining 2022-yil 22-fevraldagi "Yoshlar o'rtasida mudofaa vazirining kubogi uchun "Vatanparvarlar" harbiy-sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida" qo'shma qarorlarlari asosida tashkil etilib, o'tkazildi.

Bugun mazkur ta'lim dargohida bo'lib o'tgan tadbirda tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev va tuman sektorlari rahbarlari qatnashib, o'quvchilarni bu muvaffaqiyat bilan tabriklashdi.

Mazkur tanlov ishtirokchilariga tuman hokimligining faxriy yorliqlari va homiy tashkilotlarning qimmatbaho sovg'alari taqdim etildi.

"Jasur" jamoasi rahbari, 1-sonli UO'T maktabi direktorining vatanparvarlik ro'hida tarbiyalash buyicha direktor o'rinbosari Urunov Sanjarbek Zafarovich hamda 4-sonli umumta'lim maktabi direktorining vatanparlik r'yhida yoshlarni tarbiyalash bo'yicha direktor o'rinbosari Rauf Sunnatov va So'x tumani Mudofaa ishlari bo'limi chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayyorlash bo'limi boshlig'i Rasulbek Muhiddinovlarga O'zbekiston jangchi faxriylar (baynalmilalchi) birlashmasining "Yoshlarni Vatanparvarlik ro'hida tarbiyalash uchun" medali topshirildi. Shuningdek, barcha jamoa a'zolariga tanlovning medallari ham taqdim etildi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-04-18 17:20:17